

О'ZBEKISTONDA DAVLAT VA DIN MUNOSABATLARI: FARMONLAR, QARORLAR VA ULARNING AMALIY AHAMIYATI.

Sobirjonova Madina
Namangan DPI talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida din sohasida olib borilgan islohotlar, din erkinligi, konfessiyalararo totuvlik va diniy bag'rikenglik masalalari tahlil etiladi. Mustaqillik tufayli fuqarolarning vijdon erkinligi, diniy e'tiqod huquqi kafolatlangani, diniy tashkilotlarning erkin faoliyat yuritishi uchun qonuniy asoslar yaratilgani ochib beriladi. Maqolada, shuningdek, diniy qadriyatlarining jamiyat rivojiga ta'siri, yoshlar tarbiyasidagi o'rni va ekstremizm tahdidlariga qarshi kurashishda ijtimoiy ong va madaniyatning ahamiyati ko'rsatiladi. Tarixiy va zamonaviy ma'lumotlar asosida amaliy ahamiyati O'zbekistonda din va davlat munosabatlarining muvozanatli modeli yoritiladi.

Kalit so'zlar: Mustaqillik, din erkinligi, vijdon erkinligi, diniy bag'rikenglik, diniy tashkilotlar, ekstremizm, O'zbekiston, ijtimoiy ong, huquqiy islohotlar, davlat, din.

Аннотация: В данной статье анализируются реформы в области религии, проведённые в Республике Узбекистан в годы независимости, вопросы религиозной свободы, межконфессионального согласия и религиозной терпимости. Подчеркивается, что благодаря независимости обеспечены права граждан на свободу совести и религиозных убеждений, а также созданы законные основы для свободной деятельности религиозных организаций. В статье также рассматривается влияние религиозных ценностей на развитие общества, их роль в воспитании молодежи и значимость социального сознания и культуры в борьбе с угрозами экстремизма. На основе исторических и современных данных освещается сбалансированная модель отношений между религией и государством в Узбекистане.

Ключевые слова: Независимость, свобода вероисповедания, свобода совести религиозная толерантность, религиозные организации, экстремизм, Узбекистан, общественное сознание, правовые реформы, государство религия.

Abstract: This article analyzes the reforms in the field of religion carried out in the Republic of Uzbekistan during the years of independence, as well as issues of religious freedom, interfaith harmony, and religious tolerance. It highlights that, due to independence, the freedom of conscience and the right to religious belief of citizens have been guaranteed, and legal foundations have been established for the free activity of religious organizations. The article also discusses the impact of religious values on the development of society, their role in the upbringing of youth, and the importance of social consciousness and culture in the fight against the threats of extremism. Based on historical and modern data, the balanced model of relations between religion and the state in Uzbekistan is also outlined.

Keywords: Independence, freedom of religion, freedom of conscience, religious tolerance, religious organizations, extremism, Uzbekistan, social consciousness, legal reforms, state, religion.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishgani xalqimiz tarixidagi eng muhim voqealardan biri bo'ldi. Bu voqea nafaqat siyosiy, balki ma'naviy hayotimizda ham tub burilish yasadi. Jumladan, din erkinligi va vijdon erkinligi kabi inson huquqlari mustahkam konstitutsiyaviy asosga ega bo'ldi. Dunyoviylik va diniylik o'rtasidagi nisbat masalasi insoniyat tarixining barcha davrlarida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan. Boshqacha aytganda, inson hayoti mazmunini tashkil qiluvchi ushbu ikki tarkibiy qism o'rtasida murosaga erishish har qanday jamiyatning mavjud holati va istiqbolini belgilovchi bosh mezon bo'lib kelgan. Dinni davlatdan ajratish haqidagi g'oya azaldan hurfiylik va dunyoviy tafakkur rivojiga asoslanganini ta'kidlash joiz. Ushbu hayotiy masala Markaziy Osiyo hududida mavjud bo'lgan davlatlarda ham doimo muhim o'rinni egallab kelgan. Bunda dunyoviylikka moyil siyosiy kuchlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi mavqei muntazam ravishda o'sib

borganini ko‘rish mumkin. Shu bilan birga, davlat din bilan bog‘liq munosabatlarni tarixning barcha davrlarida muayyan tamoyillar asosida tartibga solishga intilgan. O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab uning rahbariyati oldida dinga bo‘lgan munosabatni aniq va prinsipial ravishda belgilab olish zarurati tug‘ildi. O‘sha davrda davlatning dinga bo‘lgan yangicha yondashuvi O‘zbekiston rahbariyati tomonidan ishonchli tarzda belgilab berildi va qonunchilikda o‘z ifodasini topdi. Jumladan, O‘zbekistonda davlat va din o‘rtasidagi munosabatlar Konstitutsiyamizning bir necha moddalarida mustahkamlandi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida O‘zbekistonning suveren demokratik respublika ekani ta’kidlanadi. Bu esa, O‘zbekistonning boshqaruv jihatidan respublika shakliga ega ekani, siyosiy jihatdan esa, demokratik davlat ekanini anglatadi. Konstitutsiyada har bir fuqaroning vijdon erkinligi, ya’ni o‘z e’tiqodiga ko‘ra diniy marosimlarni bajara olish huquqi kafolatlandi. (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 35-modda) [1]. O‘zbekistonda davlat va din munosabatlarining yana bir asosiy xususiyati bu dinning siyosatga aralashmasligidir. Zero, har qanday dinning birinchi galdagi vazifasi insonlarning ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash hamda ibodat va marosimlar bilan bog‘liq masalalarni tartibga solishdir. Hech qaysi din o‘zida xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotning barcha jihatlarini qamrab olishga da’vogarlik qilmaydi. E’tirof etish lozimki, har qanday diniy e’tiqod kabi islom ham barcha davrlarda, shu jumladan, dahriylik keng targ‘ib etilgan sho‘ro tuzumi zamonida ham, ijtimoiy munosabatlar va ma’naviy-ruhiy hayotga o‘z ta’sirini o‘tkazib turgan muhim omillardan biri bo‘lib qolavergan. Ijtimoiy munosabatlar va ma’naviy-ruhiy hayotning uyg‘unligi esa, har qanday jamiyatning ichki siyosiy barqarorligini belgilovchi asosiy omillardan ekani sir emas. Shu nuqtai nazardan qaraganda, din va siyosat o‘rtasidagi muayyan bog‘liqlikni inkor etib bo‘lmaydi. Buning sababi esa islom xalqimizning ong-u shuuri va mentalitetiga chuqur singib ketganidadir. Bundan kelib chiqadigan mantiqiy xulosa shuki, islom dini va musulmonchilik degan tushuncha bizning mintaqamiz uchun faqat o‘tmish va bugun tajribasigina bo‘lib qolmasdan, xalqimiz

ma'naviyatining asosiy tarkibiy qismlaridan sanaladi. Islomning jamiyat hayotidagi roli tom ma'nodagi hurfikrlilik qaror topayotgan mustaqillik davrida o'zini yanada yaqqolroq namoyon etayotgani ham shunday xulosa chiqarishga asos bo'ladi. Biroq masalaning ikkinchi jihati ham bor: diniy omilning siyosiylashuvi jamiyat xavfsizligi va barqarorligi uchun tahdidga aylanib ketishi mumkin. Ushbu holat har qanday dinning sof e'tiqodiy masalalar chegarasidan chiqib, davlat va jamiyat qurilishi masalalariga aralashishga urinishidan boshlanadi. Shunday ekan, dinning siyosiylashuvi, diniy tashkilotlarning o'z vazifasidan chetga chiqib, siyosatga aralashuvi davlat va jamiyat boshqaruvida beqarorlikka zamin hozirlaydi. Davlat va din o'rtasidagi munosabatlarda ta'lim bilan bog'liq jihatlarga ham e'tibor qaratish lozim. O'zbekiston davlat ta'lim tizimini har qanday diniy konfessiylarning ta'siridan xoli bo'lishini belgilagan. Unga ko'ra, respublikada davlat ta'lim tizimi (maktab)ning har qanday konfessiya yoki diniy e'tiqod ta'siridan xoli, shu bilan birga, diniy e'tiqodga ham qarshi emas. Bu esa, davlat ta'lim tizimida diniy fanlarning ta'lim dasturlariga kiritilmasligini anglatadi. Chunki O'zbekistonda maktab o'quvchilarning e'tiqodiy qarashlaridan kelib chiqib muayyan toifalarga ajratilmagan. Shunday ekan, bir sinfda islom yoki boshqa turli dinlarga e'tiqod qiluvchi o'quvchilar bilan birga ateistik qarashdagi dahriy fuqarolar ham o'qishi mumkin. Bunday vaziyatda diniy fanlarni o'qitish bilan bog'liq o'ziga xos muammolarning kelib chiqishi tabiiy. Bundan tashqari, O'zbekistonda davlat va din munosabatlaridagi yana bir qoida diniy tashkilotlar faoliyatining davlat tomonidan moliyaviy ta'minlanmasligidir. Bu masala "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlari to'g'risida"gi qonunning 7-moddasida *"Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatini moliyalashtirmaydi va dinga e'tiqod qiluvchilarning din bilan bog'liq his-tuyg'ularini haqoratlaydigan faoliyatga yo'l qo'ymaydi"* degan qoida asosida qonuniylashtirilgan [2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-maydagi "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" (PF-50-46-son. 19.05.2017.) [3]gi farmoniga muvofiq, Respublika baynalmilal madaniyat markazi va O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va

madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi negizida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari Qo'mitasi tashkil etildi. Hozirda Qo'mita qoshida 138 ta milliy madaniy markaz faoliyat yuritadi. Mazkur Qo'mitaning asosiy vazifalari jamiyatda millatlararo hamjihatlik va bag'rikenglikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini izchil amalga oshirish, do'stlik va ko'p millatli yagona oila tuyg'usi muhitini mustahkamlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda yashovchi turli millat va elatlar vakillarining o'ziga xos milliy an'analari va urf-odatlarini asrab-avaylash, xorijiy mamlakatlarda davlatimizning tinchliksevar siyosati, demokratik huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurish borasida O'zbekistonning maqsad va vazifalarini, shuningdek, bugungi kunda mamlakat hayotining barcha sohalarida erishilayotgan muvaffaqiyatlarni keng targ'ib qilish va boshqalardan iborat. Ayni paytda dunyo bo'ylab avj olayotgan terrorizm to'liqini, uyushgan jinoyat-chilikning o'sishi, shaxslararo nizolarni, biznes yuzasidan kelishmovchiliklarni qurol yordamida hal qilishga urinishlar, shubhasiz, tolerantlik tamoyillarining qaror topishiga to'sqinlik qiladi. Bugungi kunda jamiyatda tolerantlik muhitini shakllantirish harakatlari tobora kuchayib bormoqda. Barchaga tolerantlik muammosining dolzarbligi ayon bo'lmoqda, shuning uchun ham bu muammoning yechimiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda davlat va din o'rtasidagi munosabatlarning belgilanishida asosiy e'tibor qaratilgan masalalar davlatning dunyoviy tamoyillarini ta'minlash, fuqarolarning vijdon erkinligi bilan bog'liq huquq va erkinliklarini kafolatlash, diniy tashkilotlarning qonun doirasidagi faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish hamda jamiyatda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashdan iboratdir. Bu esa, tinchlikparvar O'zbekistonda fuqarolarning konstitutsiya va qonunlarda belgilangan huquq va erkinliklaridan emin-erkin foydalanishlariga zamin bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yil.
2. "Vijdon erkinligi va davlat tashkilotlari to'g'risida"gi qonun, 1998-yil.
3. Sh.Mirziyoyevning 2017- yil 19-maydagi "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlarni do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-50-46-son. 19.05.2017
4. O'zbekiston musulmonlari idorasi rasmiy sahifasi – www.muslim.uz
5. Омонова З. Интеллектуальные способности как основа формирования критического мышления у будущих учителей истории. Международный журнал педагогики, 5(10), 38–40. <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume05Issue10-06>
6. Omonova Z.T. Oliy ta'limda bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish omillari. https://journal.namspi.uz/articles_public_file/541465c12b5695ee6e6ac2556a5d092f.pdf
7. Xaydarov Z, Omonova Z, Nomonxonova M, Mahmudov M, Ergashev J. Autonomy of turkey in historical sources: members of the government and their fate. International Journal of Interdisciplinary Cultural Studies. <https://cgscopus.com/index.php/journals> 689